
"SAXOVAT VA KO'MAK" UMUMXALQ HARAKATI DOIRASIDA XAYRIYA TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA

Muhtaram Yurtboshimiz tashabbuslari bilan tashkil etilgan "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati tomonidan xalqimizning og'irini yengil qilish, muammolarini biroz bo'lsada aritish, dillariga xushnudlik olib kirish maqsadida ko'plab xayriya ishlari olib borilmoqda.

Shu maqsadda Qo'shtepa tuman hokimligi hamda "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hamkorligida ehtiyojmand oilalar uchun markazlashgan holda moddiy yordam ko'rsatilmoqda.

"Call-centre"ning 1197 qisqa raqami orqali aholidan kelib tushayotgan murojaatlar o'rganilib, unga ko'ra mahalla fuqarolar yig'inlarida istiqomat qiluvchi 6 nafar ehtiyojmand oila vakillariga 11 xil mahsulotdan iborat oziq-ovqat jamlamasi ularning manzillariga yetkazib berildi. Shuningdek, karantin hududida ishlayotgan tuman tibbiyot birlashmasining 11 nafar shifokorlari oilasidan xabar olinib, ularga ham oziq-ovqat jamlamasi topshirildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-07 17:34:11